

**TA'LIM JARAYONIDA AN'ANAVIY VA NOAN'ANAVIY DARS  
O'TISH METADALOGIYASI.**

**Rahmonova Sanoat Shuhrat qizi**

Osiyo Xalqaro Universiteti Tarix va filologiya kafedrası o'qituvchisi,

[rahmonovasanoatshuhratqizi@oxu.uz](mailto:rahmonovasanoatshuhratqizi@oxu.uz)

Osiyo Xalqaro Universitetining pedagogika yo'nalishi talabasi

**Sodiqova Durdona Abdusoli qizi**

**Anotatsiya.** Bugungi kunda ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalardan an'anaviy va noan'anaviy dars o'tish shakllaridan keng foydalanilmoqda buning albatta ta'limdagigi o'rni samarali bo'lib bu orqali o'quvchi yoshlarning ta'limga bo'lgan qiziqishlari yanada ortib bormoqda. Zamonaviy ta'lim jarayonini albatta ta'limiy o'yinlarsiz, ta'limiy metodlarsiz tashkil etish ta'limda biz kutgan samaradorlik bermasligi mumkin shuning uchun bugungi kunda ta'limda an'anaviy va noan'anaviy dars o'tish texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda.

**Kalit so'z.** Ananaviy dars, noan'anaviy dars, metod, texnologiya, interfaol, mahorat,

Bugungi kunda ta'lim jarayonida Dars o'tishning 2 xil turi mavjud.

1. Ananaviy
2. Noananaviy

Ta'lim jarayonidagi an'anaviy dars bu o'qituvchi o'quvchilarga o'tadigan dars turi hisoblanadi. Unda o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga bilim dars beriladi. Dars o'qituvchi faol o'quvchi esa passiv bo'ladi. O'qituvchi tomonidan bilim o'quvchi bu yerda tinglovchi bo'ladi nazariy berilgan bilimlarni eshtib tinglash qobiliyati va o'zini tutishni namoyon qiladi. O'qituvchi o'quvchilar o'rtasida an'anaviy darsda o'quvchilar o'qituvchidan qanday dars o'tishni uning mahoratini o'zini qanday tutishni uning kiyinish madaniyatini o'rganadi.

Dars jarayonidagi an'anaviy darsning yutuqlari

1. O'qituvchi yangi mavzuni yangi ma'lumotlar bilan o'tadi
2. Darsni a'lo darajada o'zining bilimi va malakasi bilan o'tadi
3. Darsda o'quvchi o'qituvchining kasbiy va shaxsiy sifatlarini o'ragadi
4. O'qituvchining kiyinish madaniyatini yurish turishini o'rganadi.
5. O'quvchi darsda har kun yangi ma'lumotlarni o'rganadi.

Shu bilan birgalikda an'anaviy dars jarayoning salbiy tomonlari ham bo'lib ular quydagilar;

## FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

1. O'quvchilarning fikrlash doirasi keng shakllanmaydi
2. Darsni o'zi qanday o'tish kerakligini biladi ammo nazariyada qo'llay olmaydi
3. O'qituvchining kasbiy sifatlarini biladi lekin nazariyada qo'llay olmaydi.
4. O'quvchi o'zi izlanib yangi darsga doir ma'lumot qidirmaydi
5. O'zi mustaqil fikr bera olmaydi.

An'anaviy darsda o'quvchilar keng ma'lumot oladi. Nazariy ma'lumotlarga ega bo'lib bilm darajasi boyib boradi. darsda o'quvchilarni o'zi dars o'tadi yangi ma'lumotlar izlaydi o'zida bor qobilyatni namoyan qiladi. Noan'anaviy darsda o'quvchilarni fikrlash darajasi o'zi bilmagan qobilyatnalar namoyon bo'ladi.

Noan'anaviy darsning yutuqlari

1. O'quvchilarda fikrlash darajasi shakllanadi.
2. O'zi bilmagan qobilyatlar rivojlanadi.
3. Darsda olgan nazariy bilimlarini mustahkamlashadi
4. Izlanuvchanlik qobilyati shakllanadi
5. Yangiliklar izlaydi
6. Dars o'tish texnikasini amaliyda qo'llaydi va boshqa bilimlarni o'rganadi.

Noan'anaviy darsda o'tishda o'quvchi faol bo'ladi o'qituvchi kuzatuvchi bo'ladi. Noan'anaviy darsda o'quvchi o'zi harakat qiladi izlanadi darsda faol bo'lishga intiladi. O'zgarishlarga tayyor bo'lib harakatga undaydi o'qishga o'quvchilar qiziqib harakat qiladi. O'quvchi o'zi izlanib harakat qiladi darsda turli xil metodlardan foydalanadi darslarni qiziqarli o'tadi. Chunki o'quvchi o'quvchilarga qanday metodlar bilan dars o'tishni biladi ularni qiziqitira oladi. Darsda o'quvchi o'z bilimini namoyan qiladi o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi, ertangi bo'lajak kasbini egallashga poydevor bo'ladi.

Ta'lim jarayonida bugungi kunda turli xil ta'limiy o'yinlardan metodlardan foydalanish dars jarayonida yuqori samaradorlikka erishish imkonini beryapti. Bugungi kunda ta'limda quydagi ta'limiy metodlardan foydalanilyapti. "Aqliy hujum", "Fikrlar hujumi", "Tarmoqlar" metodi, "Sinkveyn", "BBB", "Beshinchisi ortiqcha", "6x6x6", "Bahs-munozara", "Rolli o'yin", "Kichik guruhlarda ishlash", "Yumaloqlangan qor", "Zigzag", "Oxirgi so'zni men aytay" kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda. Bu metodlar orqali dars jarayoni tashkil etish orqali ta'lim tizmida katta yutuqlar erishish va o'quvchilarning qobilyatlarini yuzaga chiqarish mumkin. Bugungi kunda ta'limiy metodlarga quydagi talablar qo'yilmoqda

## FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Ta'limiy o'yinlarga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

1. Ta'limiy o'yinlar o'quvchilar yoshiga mos bo'lishi kerak;
2. O'yinlar o'tilayotgan mavzu mazmun-mohiyatiga mutanosib bo'lishi lozim;
3. Ta'limiy o'yinlarni o'tkazish vaqti aniq belgilanishi shart;
4. Ta'limiy o'yinlar ham ta'limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi kerak;
5. Ta'limiy o'yinlarning o'tkazilish maqsadi, ahamiyati belgilanishi lozim.

O'quvchilarga ta'lim berishda ta'lim muassasalari pedagoglarining asosiy vazifalari "Ta'lim to'g'risidagi qonun", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" mazmun-mohiyatidan kelib chiqib belgilanadi. Davlat dasturining muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun esa davlat va jamoat tashkilotlarining ishonchli va mustahkam hamkorligi, ta'lim muassasalari mutaxassislari, oilalar, mahalla faollarining uzviy aloqasi amaliy natija berishi aniq. Har bir o'quvchining botiniy ongida iqtidor, qandaydir bir istedod bor, uni shakllantirishda esa ta'limiy metodlar ta'limiy o'yinlarning o'rni yuqoridir.

Darslarni qanchalik qiziqarli o'tish o'qituvchining pedagogik malakasiga bog'liq. Darslar qanchalik mahorat bilan tashkil etilsa shundagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin buning uchun pedagog quydagi sifatlarga ega bo'lishi lozim.

1 O'quvchining qaysi xislatini shakllantirish yoki yo'qotish maqsadida rejalashtiriladi.

2 Shu hislatlarni tarbiyalash yoki yo'qotish uchun xizmat qiluvchi manbalar izlab topiladi.

3 Belgilangan maqsad uchun xizmat qiladigan nazariy va amaliy manbalarni qaysisini va qayerda ishlatish rejalashtiriladi.

Bunday rejaga solinib olib borilgan tarbiya mohiyatini ta'lim - tarbiya tizimi jamiyat va insonlarning intellektual va jismoniy faoliyati tashkil qiladi O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxislash uslublari quyidagilardan iborat:

- ✓ maxsus tuzilgan testlardan foydalanish;
- ✓ statistika;
- ✓ induksiya va deduktsiya;
- ✓ bashorat qilish;
- ✓ tadbirlarni rejalashtirish va amaliy tavsiyalarni taqdim qilish.
- ✓ O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxislashning asosiy bosqichlari quyidagilardir:

## FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

- ✓ Mo'ljallarni aniqlash;
- ✓ aniqlangan darajalarni modellashtirish;
- ✓ holatni rivojlantirish;
- ✓ O'quvchilar bilan individual ishlash.

Bularning barchasi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis

etishda asos hisoblanadi.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish zaruriyatlari

quyidagilar bilan belgilanadi:

- 1) o'quvchilarning bilim darajasi bo'yicha aniq ma'lumotga ega bo'lish va ularning bilimni rivojlantirishga doir reja tuzish;
- 2) o'quvchilarning ko'nikma darajasini aniqlash va uni rivojlantirish tadbirlarini belgilash;
- 3) o'quvchilarning malaka darajasini aniqlash va uning o'sib borish yo'nalishlarini belgilash;
- 4) o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malaka darajasini xalqaro ta'lim dasturlari asosida tashxis etish.

Bunday yondashuv o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malaka darajasini maqsadli rivojlantirib borish imkonini beradi.

Xulosa o'rnida shuni takidlash kerakki, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan ta'limiy metodlar, ta'limiy o'yinlar, an'anaviy va noan'anaviy darslardan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchilarning yangi bilim egallashlari, malaka va ko'nikmaga ega bo'lishlarini ta'minlash hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "An'anaviy va noan'anaviy ta'lim" Gulobod Qudratulloh qizi "Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi" nashriyoti 2019
2. "Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat faning o'quv mashg'ulotlarini loyihalash" M .Tojiyev, B.Ziyamuxamedov, M .O 'ralova "Tafakkur –Bo'stoni" T.2012
3. "Umumiy pedagogika, Texnologiya va amaliyot" Abdukarimov H., Suvonov O. O'quv-metodik qo'llanma. T., 2012 y., 120 b.
4. "Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya" Sayidahmedov N.–T.: O'z MU.2003.- 66 b.